



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 31-dekabr, № 276 (9171)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



YANGI TOSHKENT XALQARO ME'YORLAR VA ZAMONAVIY SHAHARSOZLIK TENDENSIYALARI ASOSIDA BARPO ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30 dekabr kuni Yangi Toshkentda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, jumladan, yo'l-transport infratuzilmasi, energetika, uy-joy, ta'lim va boshqa obyektlar qurilishining borishi bilan tanishdi.



Davlatimiz rahbari dastlab yer osti avtoturargohi va piyodalar o'tish yo'lagini barpo etish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Qurilish maydoni 40 ming kvadrat metrdan iborat bo'lgan, qiymati 100 million dollarlik mazkur avtoturargohda birinchi bosqichda 200 ta yengil avtomobil hamda 30 ta mototsikl va skuterlarni joylashtirish imkoniyati bo'ladi. To'rt tomonlama qulay va xavfsiz harakatlanish uchun piyodalar yo'lagi quriladi.

Bu yerda avtomatlashtirilgan parkovka tizimlari, velosipedlar ijarasi nuqtalari tashkil qilinib, elektromobillarni zaryadlash uchun stansiyalar ham barpo etiladi. Mazkur avtoturargohni 2026 yilda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz bu kabi zamonaviy avtoturargohlarni ko'paytirish, ular aholi uchun maksimal darajada qulay bo'lishini ta'minlash, kelgusida elektromobillar ulushi ortishini hisobga olib, ularni quvvatlash infratuzilmasini yanada rivojlantirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi. Yangi Toshkentda vazirlik va idoralar

ishini tashkil etish uchun ma'muriy binolar qurilmoqda.

Jumladan, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining modul turdagi yangi binosi barpo etilgan.

1,4 gektar yerda umumiy maydoni 5751 kvadrat metrni tashkil etuvchi 5 ta bir qavatli yengil metall konstruksiyali, bazalt qoplamali "sendvich panel"lardan iborat binolar qurildi.

Mazkur bino vazirlikning markaziy apparati hamda tizimdagi tashkilotlarni bir makonda joylashtirish imkonini berib, muassasalar o'rtasidagi hamkorlik va ish jarayonlarining samaradorligini oshirdi.

Yengil konstruksiyalar va energiya samarador "sendvich panel"lar, mustaqil oqova, samarali markazlashgan isitish, sovitish va shamollatish tizimi ushbu binoning ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish, kelgusida uni kengaytirish yoki demontaj qilish imkonini beradi hamda tez moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda yangi binoda

vazirlik markaziy apparati va tizimdagi tashkilotlarda faoliyat yurituvchi jami 550 nafar xodim ishlayotgan.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish respublika markazi ham shu binoda joylashgan.

Hozirda markaz tomonidan "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi negizida bir qator platformalar ishga tushirilgan.

Davlatimiz rahbariga platformalar faoliyati haqida ma'lumot berildi.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasi davlat shaharsozlik kadastri" geografik axborot tizimida shahar va tumanlar hududlariga oid barcha ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar yagona raqamli bazaga jamlandi. Geoportal orqali aholi punktlarining "3D" formatdagi "raqamli egizaklari" yaratildi, rekonstruksiya va renovatsiya zonalari belgilab olindi hamda hududlarni kompleks tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Bosh rejalarni ishlab chiqish va

jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish, shuningdek, ular asosida qurilishga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlari to'liq raqamlashtirildi.

Bugungi kunga qadar 20 ta shahar, 22 ta shaharcha, 843 ta tuman aholi punktlarining raqamli bosh rejalari ishlab chiqilib geoportalgga joylashtirildi.

"Reyting" elektron platformasida qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatini baholash avtomatlashtirildi. "Tender" elektron platformasi vazirlik va idoralarning elektron tizimlari bilan integratsiya qilindi. "Qurilish sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatish" elektron platformasining yangi versiyasi ishlab chiqilib, qurilish sohasidagi barcha 9 ta xizmat qamrab olindi.

"Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish", "Qurilishda davlat nazorati", "Mening uyim", "Mening hududim", "Issiqlik ta'minoti billing tizimi" kabi qator platformalar ham faoliyat yuritmoqda.

Tizimni yanada takomillashtirish, shaffoflashtirish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari shu yerda yosh mutaxassislar bilan suhbatlashdi.

— Kechagi bilim bilan bugun katta natijalarga erishish qiyin. Buning uchun har kun izlanish, aniq fanlar, xususan, axborot texnologiyalarini yaxshi o'rganish kerak, bu qurilish sohasida ham juda muhim, — dedi Prezidentimiz.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Yangi Toshkentdagi "Sharq bahori" turarjoy majmuasining qurilish maydoniga tashrif buyurdi.

Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, joriy yilda 8 million 100 ming kvadrat metr ko'p qavatli uylar qurilib, aholiga topshirilmoqda. Umuman, so'nggi to'qqiz yilda 210 million kvadrat metrl turarjoy va noturarjoy obyektlari foydalanishga topshirildi.

Yangi Toshkentda ham keng ko'lami uy-joy qurilishi boshlab yuborilgan. Birinchi bosqichda 600 ming aholi uchun zamonaviy infratuzilma barpo etilishi belgilangan. Loyiha to'liq yakunlanganda esa Yangi Toshkent 2 million nafar odam yashaydigan ulkan megapolisga aylanadi.

Ularning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash borasidagi birinchi qadam "Sharq bahori" turarjoy majmuasidir.

Majmua mintaqamizdagi eng yirik uy-joy loyihalaridan biri hisoblanadi. 95 gektar hududda 15 mingga yaqin xonadonlardan iborat ko'p qavatli uylar quriladi.

Bugungi kunga qadar bu yerda 1 million 800 ming kvadrat metrdan ortiq qurilish ishlari bajarildi. Bunda "A+" energiya tejamonlik toifasidagi zamonaviy materiallar qo'llanmoqda.

Majmuada 15 mingdan ortiq daraxt va ko'chatlardan iborat yashil hudud tashkil qilish ham rejalashtirilgan. Shuningdek, avtonom isitish va sovitish tizimlari bo'ladi, tom qismlari to'liq quyosh panellari bilan qoplanadi.

Aholining shaxsiy transport vositalarini saqlashi uchun uylarning yer osti qismlarida avtoturargohlar tashkil etiladi. Majmuadan 5 — 10 daqiqalik masofada bog', metro bekati, ma'muriy binolar va ijtimoiy muassasalar qad rostlaydi.

Prezidentimiz tayyor xonadonlardan biriga kirib, sharoitlar bilan tanishdi, Yangi Toshkent aholi uchun har tomonlama qulay uy-joy qurishda butun mamlakatimizga namuna va tajriba maktabi bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

So'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent hududida qurilayotgan energetika obyektlari bilan tanishdi.

Trigeneratsiya texnologiyasi shaharni markazlashgan sovitish va isitish binolar ta'minlash uchun zamonaviy yechim bo'lib, an'anaviy quvvatlarga nisbatan ikki baravargacha kam energiya sarflaydi. Oddiy issiqlik markazlari yoki sovitish tizimlarida ishlab chiqarish jarayonlari alohida-alohida amalga oshiriladi. Trigeneratsiyada esa bularning barchasi yagona texnologik zanjir asosida birlashtiriladi.

Hozirgi paytda Yangi Toshkentda aynan shu texnologiyaga asoslangan stansiyaning asosiy bino va inshootlari qurilishi jadal ketmoqda. Loyiha doirasida talab etiladigan asosiy asbob-uskunalar xalqaro energiya samaradorlik talablariga to'la mos keladi.

Birinchi bosqichda issiqlik uchun 75 megavatt, sovitish tizimi uchun esa 100 megavatt quvvat yaratiladi. Shu bilan birga, 17 megavatt miqdorda qo'shimcha elektr energiyasi ham ishlab chiqariladi.

Prezidentimiz Yangi Toshkentning birinchi nimstansiyasida olib borilayotgan ishlar bilan ham tanishdi. Nimstansiya quvvati 100 megavattga

teng bo'lib, Yangi Toshkentning dastlabki bosqichdagi ehtiyojlarini ta'minlaydi. Loyiha Xitoyning "Haocheng Industry Group Limited" kompaniyasi ishtirokida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilmoqda.

E'tiborlisi, ushbu obyekt O'zbekistondagi birinchi yopiq turdagi nimstansiya hisoblanadi.

Bunday tipdagi inshootlar an'anaviy ochiq nimstansiyalarga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Avvalo, ular shahar ichidagi muhitga mos loyihalanadi va hudud arxitektura qiyofasini buzmasdan joylashtiriladi. Shuningdek, bunday nimstansiyalarning shovqin darajasi an'anaviylariga qaraganda ikki baravar past bo'ladi. Bundan tashqari, ochiq turdagi inshootlarga nisbatan uch barobar kam maydon talab qiladi. Bu yangi qurilayotgan Yangi Toshkent kabi murakkab muhandislik konsepsiyasiga ega shaharda juda katta afzallik hisoblanadi.

Prezidentimiz mazkur obyektlar bilan tanishar ekan, ularning texnik imkoniyatlari, iqtisodiy samarasi va Yangi Toshkent uchun strategik ahamiyatini alohida qayd etdi. Loyihaning yanada samarali ishlashi va kelgusidagi bosqichlarini tez hamda sifatli amalga oshirish yuzasidan o'z tavsiyalarini berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkentda barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston" universiteti va O'zbekiston Milliy kutubxonasi binolarining qurilishini ham ko'zdan kechirdi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini ilmiy asosda rivojlantirish, innovatsiya va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon, avvalo, zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash bilan uzviy bog'liq.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 iyundagi qaroriga muvofiq "Yangi O'zbekiston" universiteti tashkil etilgan.

Universitetning Yangi Toshkentda barpo etilayotgan binolari majmuasining dastlabki qiymati 200 million dollar bo'lib, 50 gektar maydonni qamrab oladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON VA ROSSIYA PREZIDENTLARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Rossiya Prezidentining Novgorod viloyatidagi qarorgohiga hujum qilishga urinishni qat'iy qoraladi.

Bunday xatti-harakatlar barqarorlik va xavfsizlikka, shu jumladan, uzoq muddatli tinchlikka erishishga qaratilgan sa'y-harakatlarga tahdid solishi ta'kidlandi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan O'zbekiston — Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi, bo'lajak tadbirlar rejasi muhokama qilindi.

Suhbat yakunida yetakchilar kirib kelayotgan yangi — 2026 yil munosabati bilan bir-birini samimiy qutlab, mustahkam sog'liq, baxt-saodat va farovonlik, ikki mamlakatning birodar xalqlariga esa tinchlik-osoyishtalik va bardavom ravnaq tiladilar.

O'zA.

Senat qo'mitalarida

BIR YILLIK FAOLIYAT KO'ZDAN KECHIRILIB, KELGUSI REJALAR BELGILAB OLINDI

Oliy Majlis Senati qo'mitalarida yil yakuni bilan yig'ilishlar o'tkazilib, ularda yil davomida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinmoqda.

Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasining 2025 yilda amalga oshirgan ishlari sarhisobi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalariga bag'ishlangan majlisi bo'lib o'tdi.



Kengash yig'ilishi

QONUNCHILIK PALATASI OLDIDA TURGAN USTUVOR VAZIFALAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan deputatlar korpusi oldidagi vazifalar muhokama qilindi.

Qonunchilik palatasi Kengashi yig'ilishi arafasida barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari majlislari ham bo'lib o'tgan edi.

Ushbu majlislarda Prezident Murojaatnomasida ilgari surilgan tashabbuslar Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston

Liberal-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyalari a'zolaridan iborat "Taraqqiyot bloki" hamda siyosiy partiyalarning barcha fraksiyalari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi va tegishli vazifalar belgilab olindi.



«KUCHLI KENGASH — HISOBDOR VA TASHABBUSKOR HOKIM» TAMOIYILI AMALDA

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 120-moddasida viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashi raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi nazarda tutilgan.

Saylov

"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga asosan mazkur qoida tuman (shahar) vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan 2026 yil 1 yanvardan e'tiboran amalga kiritilishi belgilangan.

Ushbu konstitutsiyaviy normadan kelib chiqqan holda joriy yilning 29-30 dekabr kunlari respublikamizdagi barcha 208 ta tuman (shahar)da xalq deputatlari Kengashlari sessiyalari o'tkazildi.

Sessiyalarda Kengash deputatlari orasida ochiqlik va shaffoflik ta'minlangan holda raislar saylandi. Kengash raisi etib saylanganlarining:

- 203 nafari (97,5 foiz) oliy ma'lumotli;
- 28 nafari ayollar (13,5 foiz);
- 18 nafari (8,5 foiz) boshqa millat vakillari;
- 21 nafari (10 foiz) davlat mukofotlari bilan taqdirlangan;
- 8 nafari (4 foiz)ni ilmiy daraja va unvonga ega bo'lganlar tashkil qildi.

Kengash raisi va hokim lavozimlarining ajratilishi mahalliy darajada xalq hokimiyatchiligini mustahkamlashga, qarorlar qabul qilish jarayonida saylovchilar va deputatlarning rolini oshirishga keng yo'l ochadi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.



YANGI TOSHKENT XALQARO MEʼYORLAR VA ZAMONAVIY SHAHARSOZLIK TENDENSIYALARI ASOSIDA BARPO ETILADI

 Loyiha Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasi buyurtmasi asosida turkiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. Qurilish ishlari “Ozguven” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda. Universitet binolarini 2027 yilda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Majmua tarkibida 10 ming talabaga moʻljallangan 5 ta fakultet, rektorat, ming oʻrindan ortiq joylarga ega kutubxona, muzey, koʻrgazmalar zali, multimedia xonalari barpo etiladi. Shuningdek, talabalar uchun ming oʻrinli sport majmuasi va suzish havzasi, professor-oʻqituvchilar va talabalarga moʻljallangan 2 ming oʻrinli yotoqxonalar hamda oshxonalar quriladi.

Ayni paytda qurilish ishlari uch bosqichda olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari loyihaning asosiy parametrlari, taʼlim jarayoni uchun yaratiladigan infratuzilma va sharoitlarga alohida eʼtibor qaratdi. Yoshlarning ilmiy va intellektual salohiyatini roʻyobga chiqarishda bunday zamonaviy taʼlim dargohlarining ahamiyati alohida qayd etildi.

– Ushbu universitetda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, taʼlim dasturlari boshqa oliy oʻquv yurtlari uchun andoza boʻlishi kerak, – dedi davlatimiz rahbari.

Boshqa oliy oʻquv yurtlarini ham shu tarzda taʼminlash, jihozlash, taʼlimga ilgʻor texnologiyalarni jalb etish yuzasidan mutasaddilarga koʻrsatmalar berildi.

Shuningdek, qariyb 4 gektar maydonda

Oʻzbekiston Milliy kutubxonasining yangi binosini barpo etish ishlari amalga oshirilmoqda. Inshoot milliy meʼmorchilik anʼanalari va zamonaviy arxitektura yechimlarini uygʻunlashtirgan holda loyihalashtirilgan.

Toʻrt qavatli binolarning umumiy maydoni 30 ming kvadrat metrdan ziyod boʻlib, bir vaqtning oʻzida 1 ming 420 nafar kitobxonga xizmat koʻrsatish imkonini beradi. Kutubxona fondlarini saqlash, hisobga olish, xavfsizligini taʼminlash va sterilizatsiya qilish uchun maxsus yuqori texnologiyali xonalar tashkil etiladi.

Majmua koʻp funksiyali boʻlib, xalqaro va milliy yirik kutubxonalarining elektron bazalariga onlayn ulanish imkoniyatini yaratiladi. Koʻzi ojiz fuqarolar uchun maxsus oʻqish va tadqiqot muhiti yoʻlga qoʻyiladi. Shuningdek, tashrif buyuruvchilar uchun 300 oʻrinli kafe, galereya, yengil sport oʻyinlari maydonchalari va dam olish hududlari barpo qilinadi.

Prezidentimiz ushbu kutubxona Yangi Toshkentda barpo etilayotgan taʼlim va maʼrifat maskanlarining tizimida muhim oʻrin tutib, yosh avlodning intellektual rivoji uchun mustahkam zamin boʻlishini taʼkidladi. Ilm-fan va maʼnaviyatga sarmoya kiritgan davlatning iqtisodiy salohiyati ham barqaror va yuqori boʻlishi qayd etildi.

Zamonaviy kutubxona imkoniyatlaridan toʻlaqonli foydalanish uchun xodimlar axborot texnologiyalari va xalqaro standartlarni chuqur oʻzlashtirishi zarurligiga eʼtibor qaratiladi.

Yangi Toshkentda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishuv davomida

Prezident Shavkat Mirziyoyev Chirchiq daryosi ustidan yangi koʻpriklarni hamda metro bekati bilan birlashtirilgan avtoturargoh barpo etish ishlari toʻrtinchi kuni boshlandi.

Poytaxt va Yangi Toshkent oʻrtasida transport aloqalarini mustahkamlash, transport oqimini samarali boshqarish hamda aholi uchun qulay harakat muhitini yaratishga qaratilgan mazkur loyihalar shahar infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi koʻpriklarni Toshkent va Yangi Toshkentni bogʻlaydi. Bir sutkada 40 – 50 mingta avtotransport vositasini oʻtkazish qvvatiga ega boʻladi. Qurilish ishlari joriy yil oxirida boshlangan boʻlib, ayni paytda kelib loyihaning dastlabki qismi amalga oshirilmoqda.

Loyiha doirasida atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Sohil hududlari koʻkalamzorlashtirildi, energiya tejamlor yoritish tizimlari oʻrnatiladi, piyodalar va velosiped yoʻlaklari barpo etiladi. Shuningdek, koʻpriklarni orqali ikki tasmali tramvay yoʻli yotqizilishi rejalashtirilgan.

Yangi Toshkentni Toshkent shahri bilan bogʻlaydigan boʻlajak metro liniyasining uzunligi 21 kilometrni tashkil qilib, 9 ta zamonaviy bekati oʻz ichiga oladi. U kuniga 230 ming nafar yoʻlovchiga xizmat koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻladi. Liniya poytaxt metrosining mavjud tarmoqlari bilan toʻliq integratsiya qilinadi, bu esa yoʻlovchilar uchun yagona va uzluksiz transport tizimini shakllantiradi.

Davlatimiz rahbari boʻlajak liniyaning avtoturargoh bilan integratsiyalashgan bekatlaridan birining qurilish jarayoni bilan tanishdi.

Metro bekati bilan integratsiyalashgan avtoturargoh 20 ming kvadrat metr maydonda barpo etiladi, unda avtomobillar, piyodalar va jamoat transporti harakati aniq ajratilib, xavfsizlik va funksionallikka ustuvor ahamiyat beriladi.

Ayni paytda hududda yer ishlari va beton quyish ishlari olib borilmoqda. Majmua 2027 yilda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimiz loyihalarning Yangi Toshkent uchun strategik ahamiyatini taʼkidlab, qurilish ishlari belgilangan muddatlarda, yuqori sifatda amalga oshirish boʻyicha oʻz tavsiyalarini berdi.

Davlatimiz rahbari Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasiga ham tashrif buyurib, hududda amalga oshirilayotgan va istiqboldagi yirik qurilish loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Mazkur shahar qurilishiga 2023 yilda tamal toshi qoʻyilgan edi. Loyiha uchun Yuqori va Oʻrta Chirchiq tumanlaridan jami 19 ming 700 gektar yer maydoni ajratilgan. Konsepsiya Britaniyaning “Cross Works” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Ayni paytda bu yerda 100 dan ziyod katta-kichik loyihalar jadal olib borilmoqda. Har bir tashabbus xalqaro meʼyorlar va zamonaviy shaharsozlik tendensiyalariga asoslanadi.

Hozirga kelib, dastlabki inshootlar mahobati koʻrina boshladi. Yakuniga

yetayotgan 2025 yilda yangi shaharda olib borilayotgan qurilish maydonlari 3 million kvadrat metrga yetdi.

Bir qancha uy-joy massivlari qurilishi yakuniy bosqichga kirdi. Infratuzilma obyektlarida ishlar jadal bormoqda.

Birinchi bosqichda 6 ming gektar hududda qurilish ishlari bajariladi. Natijada 600 ming aholi uchun zamonaviy infratuzilma barpo etilishi belgilangan. Loyiha toʻliq yakunlanganda esa Yangi Toshkent 2 million nafar odam yashaydigan ulkan megapolisga aylanadi.

Bunday koʻlamdagi qurilish uzoq muddati va barqaror infratuzilmani talab qiladi. Hozirgi paytda hududda yirik yer osti muhandislik tarmoqlari qurilmoqda. Bir va ikki seksiyali kollektorlar yotqizilib, issiqlik, suv, elektr energiyasi va telekommunikatsiya kabi barcha tarmoqlarning yer ostidan oʻtkazilishi taʼminlanmoqda.

Transport qatnovini yengillashtirish maqsadida olib borilayotgan ishlarga alohida toʻxtalib oʻtiladi. Tunnel va yer osti avtoturargohlarining barpo qilinishi shaharning kelajakdagi harakatlanish tizimi uchun muhim ekani qayd etildi.

Hududda oʻn kilometrlik sohil bogʻi tashkil etildi. Bir million tup buta va koʻchatlar ekildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan shaharsozlikda “yashil” tamoyillar muhim oʻrin tutishi lozimligi aytiladi. Bunda metro va elektrobuslar harakatini muvofiqlashtirish, piyoda va velosipedchilar uchun xavfsiz, toʻsiqsiz yoʻlaklar barpo etilishi boʻyicha masʼullarga qoʻshimcha topshiriqlar berildi.

Hududda 60 dan ortiq davlat idoralari uchun zamonaviy maʼmuriy binolar quriladi. Ayni vaqtda qator vazirlik va idoralar vaqtincha majmualarda faoliyat boshlagan.

Investorlarning faolligi ham yuqori. Auktsion orqali sotilgan 24 ta tijoriy lot boʻyicha 2 milliard dollarlik investitsiya shartnomalari imzolangan. Bu mablagʻlar hisobidan mehmonxonalar, restoranlar, servis markazlari va oʻziga xos arxitektura ega zamonaviy binolar barpo etiladi.

Ayni paytdagi qurilish jarayonining oʻzida 10 ming nafar insonning bandligi taʼminlangan. Loyiha toʻliq amalga oshirilgandan keyin esa innovatsion texnologiyalarga asoslangan, yuqori daromadli yuz minglab doimiy ish oʻrinlari yaratilishi kutilmoqda.

Prezidentimizga Yangi Toshkentda barpo etilayotgan turizm obyektlari, xizmat koʻrsatish va dam olish majmualari, shuningdek, mamlakatimizning boshqa hududlarida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan yirik investitsiya va infratuzilma loyihalari toʻgʻrisida maʼlumot berildi.

Davlatimiz rahbari har bir tashabbusda ilm-fan yutuqlariga tayanish, loyihalarida mahalliy ruhni aks ettirish, eng asosiysi, ular xalq manfaatiga xizmat qilishi lozimligini taʼkidladi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Marhabo HOJIAKBAROVA,
OʻzA maxsus muxbirlari.

BIR YILLIK FAOLIYAT KOʻZDAN KECHIRILIB, KELGUSI REJALAR BELGILAB OLINDI



 Unda parlament diplomatiyasi konsepsiyasi asosida xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirish va tashabbuslarini faol ilgari surish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, turizmi rivojlantirish, tegishli sohalardagi qonunchilikni takomillashtirish, parlament nazoratini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi.

Majlisda xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy parlamentlar, parlamentlararo tuzilmalar hamda xalqaro tashkilotlar bilan 200 dan ziyod uchrashuv, qoʻshma tadbir va forumlar muvaffaqiyatli oʻtkazilganligi alohida taʼkidlandi. Jumladan, joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi yuqori darajada oʻtkazildi.

Hisobot davrida qoʻmitaning nazorat-tahlil faoliyati doirasida qator tadbirlar oʻtkazilib, xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy faoliyat, investitsiya muhiti va turizm sohasidagi dolzarb masalalar yuzasidan masʼul vazirlik va idoralar bilan manzilli ishlar olib borildi.

Xususan, eksport salohiyatini koʻtarish, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarning investitsiyaviy, eksport va sayyohlik uchun jozibadorlikni oshirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga eʼtibor qaratildi.

Qoʻmita tomonidan xalq bilan muloqot va fuqarolar murojaatlari bilan ishlashga ustuvor ahamiyat berilib, kelib tushgan murojaatlarning aksariyati ijobiy hal etildi. Senatorlarning joylarda oʻtkazgan sayyor qabullari orqali aholi va tadbirkorlik subyektlarini tashvishga solgan masalalar yechimiga koʻmaklashildi.

Senatning Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi ham yil yakuniga bagʻishlangan yigʻilish oʻtkazdi.

Unda qishloq va suv xoʻjaligi, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi qonunchilikni takomillashtirish, parlament nazoratini kuchaytirish,

fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, nazorat-tahlil tadbirlarini tashkil etish, sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha olib borilgan ishlarga alohida toʻxtalib oʻtiladi.

Taʼkidlanganidek, qoʻmita tomonidan Senat yalpi majlislari kun tartibiga kiritilgan 19 ta qonun maʼqullanib, 1 ta qonun rad etilgan.

Qoʻmita tomonidan nazorat-tahlil faoliyati doirasida 30 ta tadbir oʻtkazilgan, qishloq xoʻjaligi ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyati hamda dorivor oʻsimliklarni yetishtirish va ularni qayta ishlash masalalari yuzasidan masʼullarga parlament soʻrovi yuborilgan.

Yoshlarga yer ajratish orqali ularning bandligini taʼminlash, hududlarda “Yashil makon” umummilliy loyihasining amalga oshirilishi, chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish, yer maydonlarini foydalanishga kiritish, yaylov va oʻrmon fondi yerlarida ozuqabop ekinlar yetishtirishni tashkil etish boʻyicha vazirlik va idoralar rahbarlarining axborotlari eshitilgan.

Qishloq xoʻjaligida eksport hajmini oshirish, issiqxona xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlash, aholini uzuksiz elektr energiyasi bilan taʼminlash kabi masalalar yuzasidan senator soʻrovlarini yuborilgan.

Qoʻmita tomonidan xalq bilan muloqot va murojaatlar bilan ishlashga alohida eʼtibor qaratilib, 700 ga yaqin murojaatlar koʻrib chiqilgan hamda ularning salmoqli qismi ijobiy hal etilgan.

Joylarda oʻtkazilgan sayyor va Senat binosidagi qabullarda fuqarolarning qator ijtimoiy ahamiyatga ega muammolariga yechim topilgan.

Majlisda mahalliy Kengashlar bilan hamkorlikda doimiy komissiyalar aʼzolari uchun seminar va oʻquv-seminarlar tashkil etilgani, xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy parlamentlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan uchrashuvlar oʻtkazilgani aytili.

Shuningdek, “Ekologik toza hududlarning huquqiy maqomi belgilanishi munosabati bilan “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga qoʻshimcha kiritish haqida”gi qonun ishchi guruh va ekspertlar kengashi aʼzolari tomonidan dastlabki tarzda koʻrib chiqildi.

Qoʻmitalar yigʻilishlarida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis hamda Oʻzbekiston xalqiga yoʻllagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalarga eʼtibor qaratildi va ushbu dasturiy hujjatdan kelib chiqib 2026 yilda amalga oshirilishi lozim boʻlgan muhim vazifalar belgilab olindi.

«Xalq soʻzi».

QONUNCHILIK PALATASI OLDIDA TURGAN USTUVOR VAZIFALAR



 K e n g a s h yigʻilishida fraksiyalarni taklifiga koʻra, Prezident Murojaatnomasidan kelib chiqib, Qonunchilik palatasining 2026 yilga moʻljallangan faoliyatining asosiy yoʻnalishlari loyihasini ishlab chiqish boʻyicha Ishchi guruh tuzildi.

Ishchi guruh palataning 2026 yilga moʻljallangan faoliyatining asosiy yoʻnalishlari loyihasini sifatli ishlab chiqadi. Bunda Murojaatnomadagi ustuvor vazifalar, ilgari surilgan taklif va tashabbuslarni izchil amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashga alohida eʼtibor qaratildi.

Yigʻilishda, shuningdek, Murojaatnomaning mohiyati va ahamiyatini, unda belgilangan 6 ta ustuvor yoʻnalishni bajarishda Qonunchilik palatasi hamda tashkilotlar bilan uchrashuvlar oʻtkazilgani aytili.

Kengashda keng jamoatchilik, deputatlik korpusi Prezidentimiz Murojaatnomasida ilgari surilgan barcha tashabbuslarni toʻliq qoʻllab-quvvatlayotgani aytib oʻtili.

Xususan, Murojaatnomada keng koʻlamli islohotlarning asosiy yoʻnalishlari har tomonlama asoslab berilgani, ularni amalga oshirishdan koʻzlangan maqsad, eng avvalo, xalqimizning farovonligini oshirishga qaratilgani

alohida qayd etildi.

Taʼkidlanganidek, belgilab berilgan 6 ta ustuvor yoʻnalish, “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturida nazarda tutiladigan vazifalar, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining yangidan qabul qilinishi parlament zimmasiga ham alohida masʼuliyat yuklaydi.

Kengashda Prezident Murojaatnomasida belgilangan barcha vazifalarni amalga oshirishda Qonunchilik palatasining tashiri va oʻrni yuqori boʻlishi kerakligi taʼkidlandi. Bu boradagi asosiy yoʻnalishlar aniq belgilab olindi.

Jumladan, ushbu dasturiy hujjat doirasida deputatlik korpusi barcha sohalaridagi huquqiy asoslarni mustahkamlashga urgʻu beradi. Qonunchilikni talvoldan oʻtkazishda va aniqlangan huquqiy boʻshliqlarni toʻldirishda faol boʻladi.

Siyosiy partiyalar fraksiyalari aʼzolari har oʻyin oʻxirgi haftasida saylov okruglaridagi uchrashuvlari davomida Murojaatnomaning mazmun-mohiyati va ahamiyatini saylovchilarga yetkazadi. Hududlarda amalga oshiriladigan ishlarda deputatlarining ishtiroki yanada ortadi.

Qonunchilik palatasining qoʻmitalari yangilanayotgan “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi loyihasiga oʻz faoliyatidan kelib chiqib, takliflar beradi.

Kengash yigʻilishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2025 yildagi faoliyati yakunlari muhokama qilindi.

«Xalq soʻzi».

MAMLAKATIMIZ ISTIQBOLIGA DAXLDOR HUJJAT

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida taʼkidlangan vazifaga muvofiq “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining qayta koʻrib chiqilgan loyihasi yuzasidan matbuot anjumani tashkil etildi.

Tadbir

Taʼkidlandiki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga bu galgi Murojaatnomasi avvalgi yillardagi islohotlardan farqli oʻlaroq, “islohotlarni chuqurlashtirish va natijasini mustahkamlash” bosqichiga oʻtishni anglatadi. Shu nuqtai nazaridan, unda “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini qayta koʻrib chiqish hamda kelgusi 5 yil uchun maqsad va vazifalarga aniqlik kiritish ham taklif etildi.

2023 yilda qabul qilingan mazkur dasturiy hujjat qisqa davrda mamlakat taraqqiyotining barcha yoʻnalishida sezilarli natijalarni taʼminladi. Xususan, kambagʻallik darajasi 1,9 foizdan 6,8 foizga, ishsizlik 6,8 foizdan 4,9 foizga tushdi. Yalpi ichki mahsulot hajmi 103 mlrd. dollardan 145 mlrd. dollarga, eksport 25 mlrd. dollardan 33,4 mlrd. dollarga, xorijiy investitsiyalar esa 17 mlrd. dollardan 43 mlrd. dollarga yetdi. Shuningdek, xorijiy turistlar soni 6,6 mlrd. dan 8,6 mln. natfarga oshdi, maktabgacha taʼlim qamrovi 72 foizdan 78 foizga, oliy taʼlimda esa 42 foizga yetdi. Oʻzbekiston bilan diplomatik munosabatlar oʻrnatgan davlatlar soni 144 dan 164 taga koʻpaydi.

Shu bilan birga, soʻnggi ikki yilda Prezidentimiz tomonidan 650 dan ortiq farmon va qarorlar qabul qilindi, 500 dan ziyod turli darajadagi yigʻilish, uchrashuv va taqdimotlarda barcha sohalar boʻyicha yangi vazifalar belgilab berildi.

Dastlab 2030 yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 160 mlrd. dollarga yetkazish maqsadi qoʻyilgan boʻlsa, endilikda mazkur marraga 2026 yilning oʻzida erishish kutilmoqda. Shu bilan birga, kelgusi besh yilda iqtisodiyot hajmini 240 mlrd. dollardan oshirish imkoniyati mavjudligi taʼkidlandi. Yaʼni yurtimizda turli sohalarida yuqori maralar inoliyapti.

Aholi sonining oʻsishi ham yangi maqsadlarni belgilashda muhim omil sifatida qayd etildi. Jumladan, 2023 yilda 36,7 mln.lik nufus 2030 yilga borib 41 mln. nafargacha yetishi prognoz qilinmoqda.

Bundan tashqari, jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarda tendensiyalar hamda dinamika oʻzgarayapti. Raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellekt, aholi ehtiyojlari ham yangi qadamlarni, aniq rejalarini kun tartibiga qoʻymoqda.

Mazkur oʻzgarish va natijalarni hisobga olib, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining takomillashtirilgan loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu jarayonda vazirlik va idoralar, ilmiy muassasalarning 350 nafardan ortiq vakillari ishtirok etib, Strategiyada belgilangan barcha 444 ta samaradorlik koʻrsatkichi bugungi kun talablari asosida qayta koʻrib chiqildi.

Yangilangan Strategiya loyihasining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, barcha maqsadlar davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan yangi maralarga moslashtirildi va toʻldirildi. Bunda yurtdoshlarimizga munosib sharoit yaratadigan, har bir inson va oila hayotida seziladigan maqsadlarga alohida eʼtibor qaratildi;

ikkinchidan, hamma koʻrsatkichlar oʻlchanadigan, yaʼni son shaklida (foiz, ulush, daraja, hajm, nisbat, ball, indeks) boʻlishi qatʼiy belgilandi. Hisoblab yoki baholab boʻlmaydigan, umumiy vazifa, topshiriq va “shior” koʻrinishidagi koʻrsatkichlar chiqarib tashlandi (bunday bandlar 130 ta);

uchinchidan, barcha samaradorlik koʻrsatkichlarining bajarilishi 2030 yilgacha yilma-yil belgilandi. Yaʼni har bir ijobiy oʻzgarishni yillar kesimida koʻrish imkoniyati yaratildi;

toʻrtinchidan, Strategiyada har bir vazirlik va idora oʻz oʻrnini topdi. Xususan, loyihaga koʻra 60 taga yaqin davlat organlariga tegishli samaradorlik koʻrsatkichi belgilandi;

beshinchidan, har bir samaradorlik koʻrsatkichiga erishilishini taʼminlaydigan moliyaviy manbalar aniq koʻrsatildi;

oltinchidan, endi soha, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiya va strategiyalari “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq holda ishlab chiqilishi qatʼiy belgilandi. Jumladan, keyingi yil 50 tadan ziyod shunday konsepsiya (4 ta), soha va tarmoqlarni rivojlantirish strategiyalari (38 ta) hamda har bir hududni rivojlantirish strategiyalarini (14 ta) qabul qilish rejalashtirilgan.

Qayd etilganidek, Strategiyada belgilangan samaradorlik koʻrsatkichlariga erishish barcha darajadagi tashkilotlar uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti topshirigʻiga muvofiq, yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor boʻlgan ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazilib, aholimizning fikr-mulohazalari asosida takomillashtirildi.

Shunga koʻra, Strategiya loyihasi bugun “uzbekistan2030.uz” va “regulation.gov.uz” platformalarida jamoatchilik muhokamasiga qoʻyiladi. Mazkur jarayonda ommaviy axborot vositalarining faol ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan tadbirda Strategiyada belgilangan maqsad va vazifalarni chuqur tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka xolis hamda atroflicha yetkazishda OAVning masʼuliyati va roli eʼtirof etildi.

Otabek SAIDAHMADOV
(«Xalq soʻzi»).

TARIXIY VOQYEALARNING OʻZIGA XOS TALQINI

Samarqand davlat universiteti muassisligida «Samarqandim» jurnalining joriy yildagi 3-soni nashr qilindi

Mamlakat hayotidagi tarixiy voqeyalar oʻziga xos uslubda, yorqin dizayn va suratlar bilan yoritilgan jurnal har qanday oʻquvchini befarq qoldirmaydi.

Mutolaa

Jumladan, shu yil 30 oktabr – 13 noyabr kunlari Samarqand shahrida oʻtkazilgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi, Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchichning 28 – 31 oktabr kunlari mamlakatimizga rasmiy safari, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 4 – 6 noyabr kunlari Amerika Qoʻshma Shtatlariga amalga oshirgan tashrifi, 25 noyabr kuni Samarqand viloyatiga tashrifining eng esda qolarli lahzalari aks ettirilgan fotomateriallar, mazkur voqeya-hodisalarga davlat va jamoat arboblari, xorijiy mamlakatlar rahbarlarining munosabatlari, eʼtiroflari nashrning ushbu soni sahifalarini bezagan.

Xususan, AQSH Prezidenti Donald Tramp, Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirgʻiz

Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning mamlakatimizda yuz berayotgan islohotlarga, ularning meʼmori boʻlgan Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning faoliyatiga bergan yuksak bahosi Oʻzbekistonning xalqaro miqyosdagi obroʻ-eʼtibori izchil kengayib borayotganini namoyon etadi.

Tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning ijtimoiy tarmoqlardagi postidan keltirilgan iqtibosda taʼkidlanganidek, Vashington shahriga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif yana bir bor Oʻzbekiston va butun Markaziy Osiyoning ishonchli va istiqbolga yoʻnatirilgan hamkor sifatidagi oʻsib borayotgan rolini, shuningdek, oʻzaro hurmat va ishonchga asoslangan strategik muloqotni mustahkamlashga boʻlgan qatʼiy intilishini tasdiqladi.


BILIM VA ZAKOVAT BOR JOYDA ULUG'LIK BO'LADI

Men, senator sifatida, Prezidentimizning parlament va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasini chuqur mamnuniyat hamda katta umid bilan qabul qildim. Unda bayon etilgan har bir fikr, har bir raqam Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lashga qaratilgan izchil islohotlarning amaliy samarasini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Avvalo, ta'lim sohasida erishilayotgan natijalar barchamizni quvontiradi. Qisqa vaqt ichida qo'shimcha 500 ming o'quvchi o'rni yaratilib, ularning jami soni 5 mln. 300 mingga yetgani – bu kelajagimiz poydevori mustahkamlanayotganidan dalolat. Hozirda yana 1 mln. 200 ming o'quvchi o'rni yaratish bo'yicha ishlar jadal davom ettirilayotgani esa ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanini tasdiqlaydi.

Yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, ularni kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxassisi qilib voyaga yetkazish ham bugunning ustuvor vazifalaridan biridir. Bu borada Murojaatnomada muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, kasbiy ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan texnikumlar yangi sifat bosqichiga olib chiqiladi. Buning uchun 2026 yildan boshlab, har yili kamida 100 tadan texnikum to'liq ta'minlanib, texnologik va talab yuqori kasblarga mos holda jihozlanadi. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar soni 100 taga yetkaziladi.

Bundan tashqari, 2026 yilda 7



ta viloyatda, 2027 yilda esa qolgan hududlarda ilg'or kasbiy mahorat texnikumi va "Kasblar shaharchasi" faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bunda ilg'or kasbiy mahorat texnikumlar hududidagi boshqa texnikumlar uchun metodik va amaliyot bazasi sifatida faoliyat yuritisa, "Kasblar shaharchasi" maktab o'quvchilari qurilish, servis, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, "yashil" energetika kabi sohalaragi zamonaviy kasblarga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Endilikda dunyo tajribasida keng qo'llanilayotgan dual ta'lim asosida o'qitishni samarali tashkil qilgan korxonalar 7 yil muddatda 5 mlrd. so'mgacha imtiyozli kredit ajratiladi va korxonalar ishga olgan texnikum o'quvchisi uchun 1 foizli ijtimoiy soliq imtiyozini yana uch yilga uzatiriladi.

Shuningdek, 2026 yildan boshlab texnikumlarda ta'lim

olayotgan 100 ming o'quvchiga ilk bor stipendiya to'lanadi; a'lo baholarga o'qiyotgan, tanlagan kasbini puxta egallayotgan farzandlarimizga esa oshirilgan miqdordagi stipendiya beriladi. Bu kabi ulkan rejalarning bajarilishi yoshlarning hayotda o'z o'rmini topishi uchun muhim vosita bo'lishi, shubhasiz.

Yoshlarimiz yutuqlari esa alohida faxr manbai. Bu yil 381 nafar sportchi xalqaro musobaqalarda, 43 nafar iqtidorli yosh esa nufuzli fan olimpiadalarida g'alaba qozongani yoshlariga yaratilayotgan imkoniyatlarning yaratilmasidir. Zotan, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganidek, bilim va zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi. Shu bois biz senatorlar ham ushbu islohotlarni qo'llab-quvvatlash bilan birga, xalq bilan mulqotda bo'lib, ularning taklif va tashabbuslarini davlat dasturlariga kiritishda faol ishtirok etamiz.

Ishonchimiz komilki, fidokor xalqimiz bilan birga biz oldimizga qo'ygan barcha ulug' maqsadlarga, albatta, yetamiz. Yangi O'zbekiston – bu bizning umumiy kelajagimiz, umumiy mas'uliyatimiz va umumiy iftixorimizdir.

Bahrom ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Senatining
Fan, ta'lim va sog'liqni
saxlash masalalari qo'mitasi
raisi.

ISLOHOTLAR QAT'IY DAVOM ETTIRILADI, NATIJALAR MUSTAHKAMLANADI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga taqdim etgan Murojaatnomasida barcha sohalarida ro'yobga chiqarilgan islohotlar chuqur tahlil qilinib, istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi. Oltita ustuvor yo'nalish bo'yicha nazarda tutilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirish, aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Murojaatnomada 2026 yil uchun eng muhim va ustuvor jihatlari izchil aks etdi. Unda, eng avvalo, iqtisodiy yuksalishning yangi modeli, ya'ni iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish taklif qilindi. Shuningdek, barqaror va sifatli rivojlanishni ta'minlash, YALM o'sishini saqlab qolish bilan birga, uning tarkibini yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlari hisobiga yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada innovatsiya va texnologiyaga tayanish, sanoatda raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni kengaytirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunda xalqaro hamkorlarimiz bilan aloqalarini yanada mustahkamlash ayni muddaodir. Shu ma'noda, yangi texnologik bosqichga o'tish va qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish bo'yicha sanoatni rivojlantirishning yangi davri boshlanadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. 2026 yilda 52 mlrd. dollarlik 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start beriladi, 14 mlrd. dollarlik 228 ta yangi yirik quvvat ishga tushiriladi.

Murojaatnomada davlatning ijtimoiy majburiyatlari ortib borayotganligiga alohida urg'u berildi. Ya'ni davlat ijtimoiy sohalariga ustuvor ahamiyat

qaratmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash, aholining ijtimoiy himoyasiga byudjet xarajatlarning yanada oshirilishi aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bunda, mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash orqali mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, uning qiyofasini yanada go'zal va obod qilish ishlari davom ettirilishi ko'zda tutilayotgani e'tiborga molik. Jumladan, kelgusi yildan mahallani rivojlantirish yuzasidan kompleks yondashuvga o'tiladi, urbanizatsiya va shaharlarni barqaror rivojlantirish bo'yicha yangi islohotlar boshlanadi. Yo'llar, kommunal xizmatlar, uy-joy va shaharsozlik loyihalarlari orqali ichki talab qo'llab-quvvatlanadi. Eng muhimi, xarajatlar maqsadli yo'naltiriladi. Byudjet mablag'lari "natija uchun" tamoyili asosida taqsimlanadi, bu esa samaradorlikni ta'minlaydi.

Murojaatnomada soliq siyosatiga oid masalalar ham nazarda tutilgan bo'lib, tadbirkorlar uchun taqdim etilayotgan yengilliklar ularning biznesdagi imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qilishi barobarida, muhim yirik loyihalarini ro'yobga chiqarishga ishonchini oshiradi. Jumladan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosat davom ettirilib, 2026 yilda asosiy



soliq stavkalari o'zgarishsiz qoldiriladi. Tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalariga 10 trln. so'mdan ziyod mablag' ajratiladi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trln. so'm resurs beriladi. Shundan 43 trln. so'mi xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

Asosiy soliq stavkalarining barqaror saqlanishi qulay biznes muhitini yaratadi. Ma'muriy yengilliklar, ya'ni soliq ma'murchiligi soddalashtiriladi, tekshiruvlar qisqartiriladi. Qulay biznes muhiti, demografik o'sish, inson kapitaliga berilayotgan e'tibor O'zbekistonni investorlar uchun jozibador mamlakatga aylantirishi, shubhasiz. Masalan, joriy yilda chet ellik hamkorlarimiz bilan 140 mlrd. dollarlik yangi investitsiyaviy kelishuvlarga erishgan bo'lsak, kelgusi yilda 50 mlrd. dollar xorijiy investitsiya jalb qilinishi kutilmoqda.

Bu raqamlar shunchaki ko'rsatkichlar emas, Yangi O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini kafolatlash borasidagi islohotlarimizning qat'iy davom ettirilishidan dalolat beradi.

To'g'ridan-to'g'ri davlat xaridlari endilikda qonunlarda nazarda tutilishi

belgilanmoqda. Shuningdek, tashqi qarzni jalb etish borasida parlament nazorati kuchaytiriladi. Kapital bozorini, zamonaviy bank xizmatlarini yanada rivojlantirish, byudjet ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, qonunlarni amaldagi ijro natijasi bilan baholash, iqtisodiy islohotlarning joylarda bajarilishi uchun deputatlik mas'uliyatini oshirishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Umuman olganda, Murojaatnomaning asosiy mohiyati – iqtisodiy barqarorlikni ta'minlagan holda kuchli ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatni olib borishdir.

Avvalgi yillardagi islohotlardan farqli o'laroq, bu Murojaatnomada "islohotlarni chuqurlashtirish va natijasini mustahkamlash" bosqichiga o'tishni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, unda "O'zbekiston – 2030" strategiyasini qayta ko'rib chiqish hamda kelgusi 5 yil uchun maqsad va vazifalarga aniqlik kiritish ham taklif qilindi. Bu tabiiy. Chunki kelgusi 5 yilda YALMni 240 mlrd. dollarga yetkazish – bu juda katta maqsad. Bunga erishish uchun innovatsiyaga tayanilgan iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiya darajasini yanada kamaytirib borish, soliq-byudjet barqarorligini saqlash kabi muhim vazifalar Murojaatnomadan kelib chiqqan holda qalaladi, aniqliklar kiritiladi. Bularning barchasi O'zbekiston yanada qudratli mamlakatga aylanishiga, xalqimizning farovonligiga xizmat qiladi.

Sharofiddin NAZOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Byudjet va iqtisodiy
masalalar qo'mitasi raisi.

Milliy taraqqiyot yo'li: YANGI BOSQICH, YANGI MAQSADLAR



Bugungi shiddatli davr barchamizning zimmasiga katta mas'uliyat yuklamog'ga. Bu – Vatan taqdiriga daxldor ekanimizni chuqur anglash va har bir dadamiz bilan uning ravnaqiga hissa qo'shishdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar ham bizni shunga da'vat etadi.

Murojaatnomada ta'kidlaganidek, so'nggi to'g'iz yilda el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo'li bosib o'tildi. Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, ijtimoiy himoya kengaytirilib, qonun ustuvorligi mustahkamlandi. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadan va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda. Va qanchalik og'ir bo'lmasin, boshlangan demokratik islohotlar qat'iy davom ettirilgan, xalqimizning qo'llab-quvvatlashi, yoshlarimizning g'ayrat-shijoati, mahallaning hayotimizdagi o'rni va ta'siri oshayotganligi, odamlarning ongi va dunyoqarashi o'zgarib, el-yurtimiz yanada jipslashgani, tadbirkor, tehqon hamda fermerlarning tashabbuskorligi va mardona mehnati, o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do'stona tashqi siyosat tufayli 2025 yilda barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishildi.

Murojaatnomada tog'-kon va metallurgiya sanoatini rivojlantirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Chunki O'zbekistonning boy mineral xomashyo bazasidan chuqur qayta ishlash asosida foydalanish orqali yangi qiymat yaratish rejalashtirilgan. Xususan, Navoiy viloyatidagi oltin konlarida ma'dan qazib olish bo'yicha qiymati 2 mlrd. 300 mln. dollarlik yirik loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutildi.

Bu strategik vazifalar natijasida mamlakatimiz bo'yicha 2030 yilga borib oltin ishlab chiqarish hajmi 175 tonnaga yetadi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning jahon tog'-kon sanoatidagi o'rmini yanada mustahkamlab, mamlakat iqtisodiyotiga barqaror valyuta tushumini ta'minlaydi.

Murojaatnomada iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, sanoat salohiyatini oshirish, ekologik muammolarni hal etish, shuningdek, malakali kadrlarni tayyorlash kabi muhim yo'nalishlarga alohida urg'u berildi. Kon-metallurgiya sohasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ham muhim mas'uliyatni zimmasiga olib, munosib hisslari bilan ishtirok etadi.

Ma'lumki, kombinatimiz qimmatbaho metallarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha yetakchi kompaniyalardan bo'lib, davlatimiz iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim o'rin egallab kelmoqda. Bunda, eng avvalo, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish asosiy

vazifalardan biridir. Amaliy tajriba ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, mavjud kon va qayta ishlash tarmoqlarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish orqali mehnat unumdorligiga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda. Qolaversa, investitsiya va innovatsiyalarni jalb qilish yangi yilda ham izchil davom ettiriladi. Yangi konlarni o'zlashtirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish NKMning uzoq muddatli strategik maqsadlaridan biri.


Shuningdek, Murojaatnomada ekologik xavfsizlik va "yashil" texnologiyalarni joriy etish muhim ustuvor vazifa sifatida qayd qilindi. Bundan kelib chiqib, sanoatning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish birinchi darajali vazifamiz bo'lib qoladi.

Prezidentimizning "bir bo'lsak, yagona xalq, yagona millat bo'lib harakat qilsak, ko'zlagan ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz, men bu yo'lda mard va oliyanob xalqimizga ishonaman" degan so'zlarida chuqur ma'no va katta ishonch mujassam. Bu da'vat har bir fuqarorni yurt taqdiriga befarq bo'lmaslikka, Vatan ravnaqi yo'lidagi yekaldosh bo'lib harakat qilishga chorlaydi. Chunki taraqqiyotga erishish, islohotlarni hayotga tatbiq etish, avvalo, jamiyatdagi hamjihatlik va o'zaro ishonchga bog'liq.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar va strategik maqsadlar barchamizdan tarix oldidagi mas'uliyatni chuqur his qilishni, Vatan taraqqiyoti yo'lidagi fidoyilik va tashabbuskorlik bilan ish olib borishni talab etadi. Yangi O'zbekistonda barpo qilish, bu faqat davlat siyosatining emas, balki har bir fuqaroning ongli tanlovi va amaliy harakatlarga bog'liq. Shu ma'noda, Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ham mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash, sanoatni yangi bosqichga olib chiqish, ekologik barqarorlik va inson kapitalini rivojlantirish yo'lidagi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni siddiqildan bajarishga qat'iy bel bog'lagan. Birik, ishonch va hamjihatlik ruhi bilan harakat qilay ekanmiz, albatta, ulkan marralarni zabt etamiz.

Quvondiq SANAQULOV,
«NKM» AJ bosh direktori,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

EZGU NIYATLAR IJOBATI



bugun har bir oila, har bir inson o'z hayotida ko'rmoqda, his etmoqda.

Kichik hovlida 4-5 oila yashagan ko'planning yodidadir. Bugun har bir oila Vatan ichra vatan qurish, boshpanali bo'lish imkoniga ega. 2025 yilda 8,1 mln. kvadrat metr maydonda uy-joy qurilibdi, aholining o'zi ham 19 mln. kvadrat metr yerda uy-joy qurgani yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar ehsigining keng ochilgani emasmi?

Besh yil oldin aholimiz yiliga 210 ming kvartira, 600 ming avtomobil xarid qilgan bo'lsa, bu yil 270 mingga uy, 1 millionta mashina sotib olgan. Bu ham aholi daromadi va xarid qobiliyati oshayotgani, farovonlik kundan-kun yaxshilanayotganidan dalolat.

Prezidentimiz Murojaatnomada mamlakat hayotining har bir jabhasini yanada rivojlantirishga oid yirik tashabbuslarning ijrosi bilan birga kelgusi yillardagi eng muhim vazifalarga ham to'xtalib, 2026 yilni yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili", deb e'lon qiladi.

Darhaqiqat, mamlakat tinchligi avvalo, mahalla osoyishtaligiga bog'liq. Mahalla rivojlansa, mahallalar yuksaladi. Bu esa o'z-o'zidan bo'lmaydi. Uni ma'naviyati uyg'oq, bilimli, yurti uchun borini fido etadigan farzandlar yuksaltiradi.

Aytish joizki, g'iyohvandlik, ichkilikbozlik, poraxorlik, ro'vonlik kabi bugungi kunning eng yirik xavflariga qarshi turadigan kuch ma'naviy barkamollik hisoblanadi. Shuning uchun ham farzandlarimiz tarbiyasiga doim katta e'tibor qaratish dardkor. Binobarin, aholini ma'rifati, bilimi, kitobxonligi uchun Prezidentimizning o'zi ulkan rag'batlantirib turibdi. Vaholanki, ko'p kitob o'qigan insonga manaman degan davlatlarda ham avtomobil sovg'a qilinmaydi. "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Kitobxon uy bekasi", "Kitobxon davlat xizmatchisi" nomli nufuzi baland va qamrovi keng tanlovlar

faqat bizda bor. Bu an'ana yanada davomli bo'lishi Prezidentimiz Murojaatnomasida alohida ta'kidlandi: "Mahalla yoshlarining kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida maktab kutubxonalarini har yili 10 million dona badiiy adabiyotlar bilan ta'minlab boramiz".

Bu so'zlar zamirida katta ma'no bor. Bu fikrda islohotlarning taqdiri ziyoli, bilimli, ma'rifatparvarlarga bog'liq degan haqiqat bor. Chindan ham kitob o'qigan inson islohotlarimizga kamarbasta bo'ladi, dorilamon kunlarning qadriga yetib, uni yanada mustahkamlaydi.

Qolaversa, Prezidentimizning quyidagi fikrlari katta-kichik, hammani oyoqqa turg'azishi kerak: "Donishmand bobolarimizning "Birlashgan – o'zar, birlashmagan – to'zar" degan hikmatli maqoli bor. Tarix davomida qanday og'ir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashagqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo'lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila-oilaga, qo'shni-qo'shniga ko'mak berib yashagan. Biz mana shunday o'ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak".

Bugun Yangi O'zbekistonning maqsadi aniq – yaqin yillarda daromadi jon boshiga o'rtadan yuqori bo'lgan mamlakatlarga qatoriga kirish! Qararg, marra qancha baland olindi, niyat qanchalar yaxshi, ezgu! Qutlug' niyatlarga ishonch ro'yobi esa yangi umid-orzularga chorlaydi. Bu barchamizni harakatga, tinim bilmay bedor, uyg'oq bo'lib yashashga undaydi.

Komila KAROMOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi
rahbari, senator.

IZCHIL SA'Y-HARAKATLARIMIZ UYG'UNLIGI KAFOLATI

Davlatimiz rahbarining "biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik", degan fikrlariga uyg'un holda, bu yo'lda bizga har yili parlament va xalqimizga yo'llanadigan Murojaatnomada muhim dasturlamal bo'lib xizmat qilayotganini va u o'ziga xos rivojlanish nuqtasiga aylanib ulguraganini aytish joiz.

Murojaatnomada joriy yilda 5 mln. aholi daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushgani ma'lum qilindi. Natijada qariyb 1,5 mln. ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqarilib, ilk bor 1 435 ta mahalla "kambag'allikdan xoli" hududga aylangan e'tiborga molik.

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishidagi islohotlar natijasida kambag'al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog'chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi.

Yana bir quvonarli holat – 8,5 milliondan ziyod odamlar kambag'allikdan chiqib, ishsizlik 2 karra qisqarganidir.

Darhaqiqat, 2025 yilda aynan ijtimoiy sohada qo'shga kiritgan yutuqlarimiz ko'lami keng. Xususan, 2025 yilning birinchi yarmidagiy 68 ta yangi maktab qurilib, foydalanishga topshirildi. O'z navbatida, maktablarning faqatgina

sonini oshirish emas, balki mazmun va ta'lim sifati nuqtai nazaridan ham yangilashga e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 2029 yilga qadar 58 ta zamonaviy, innovatsion maktab qurish rejai e'lon qilingani buning yorqin isbotidir.

Sohaga xususiy sektorni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy etilishi natijasida minglab yangi bog'chalar ochilmoqda. Shu tariqa bugungi kunda yurtimizda jami 38 mingdan ortiq davlat va xususiy bog'chalar faoliyat yuritmoqda. E'tibor qilinsa, bu yo'nalishlardagi islohotlar natijasida nafaqat bolalar bog'chalar bilan qamrab olinadi, balki minglab ayollarimiz doimiy ish joylariga ega bo'lishayotir.


Islohotlar sog'liqni saqlash tizimida ham faol hayotga tatbiq etilyapti. 2025 yil holatiga ko'ra, ijtimoiy soha investitsiya dasturlari doirasida o'nlab yangi tibbiyot muassasalari

qurildi yoki to'liq rekonstruksiya qilindi.

Albatta, insonlarni rozi qilish keng ko'lamli islohotlarni talab etadi va Yangi O'zbekiston ham juda katta miqyosdagi o'zgarishlar va marralarni o'z oldiga qo'ygan. Eng avvalo, aholi qo'irini yengil qilish maqsadida raqamlashtirish masalasiga alohida ustuvorlik qaratilyapti. Natijada aynan raqamlashtirish davlat boshqaruvidagi eng sezilarli o'zgarishlar kuzatilayotgan sohalaridan biriga aylandi.

Bu borada ko'rilgan choralar natijasida, bugungi kunga kelib, jami 700 dan ortiq davlat xizmatlari "my.gov.uz" portali orqali onlayn taqdim etilmoqda. Portaldan foydalanuvchilar soni esa 11 milliondan oshgan.

So'nggi yillarda o'n minglab ehtiyojmand oilalar ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bilan qamrab olingani va mahallabay



ishlash, "ijtimoiy reestr" va manzilli yordam mexanizmlari joriy etilishi orqali davlat ko'magi haqiqatan ehtiyojmand qatlamlaga manzilli yo'naltirilayotganini ham alohida urg'ulash adolatdan bo'ladi. Ya'ni "inson qadri" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zaro uzviylikda, kompleks yondashuv orqali olib borilayotgani ularning samaradorligini qat'iy ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Murojaatnomasi sifatida va uzoq istiqboldagi islohotlar chizigisi qisqitida tarixga muhrlandi va yangi marralarni belgilab berdi. Binobarin, kelgusi yilda iqtisodiyotda 6,6 foiz o'sishni ta'minlab, yalpi ichki mahsulotni 167 mlrd. dollarga yetkazish prognoz qilinayotgani, bu shunchaki raqamlar emas. Bu avvalo, qisqa vaqtida to'plangan katta tajriba, o'ziga ishonch va tanlangan yo'lda sobitlik mevasidir. Unga erishish esa xalq farovonligining oshishi demakdir. Shu and, shu marra sizni bizni birlashtiruvchi nuqta, musharakat maqsad hamda harakatlarmiz uyg'unligi kafolatidir.

Zulayho AKRAMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

Kelasi yil 1 martdan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ota-onalari uchun «Mehrli oila» xizmati tashkil etiladi.

